

To'fondan so'ng



15:02 / 02.02.2020 2818

22

Alloh xohlagan narsa sodir bo'lganidan keyin kofirlar g'arq bo'ldi, osmon suvini ushladi va suv singib ketdi. Kema Juvdiy tog'ida turib qoldi va **“Zolim qavmlar yo'qolsin!”**, (*Hud surasi, 44-oyat*) deyildi. Ey Nuh! Salomatlik bilan (kemadan) tush, deyildi. Nuh va kema ahli tushishdi va quruqlikda omonlikda yurishdi. Nuh qavmidan bo'lgan kofirlar halok bo'ldilar va ular uchun yer ham osmon ham yig'lamadi. Alloh, Nuhning avlodlariga baraka berdi, ular yer yuzida tarqalib, yer yuzini to'ldirdi. Ulardan ko'plab xalqlar, payg'ambarlar va podshohlar bo'ldi.

«Barcha olamlarda Nuhga salom bo'lsin»! (*Soffat surasi, 79-oyat*)

«Barcha olamlarda Nuhga salom bo'lsin»! (*Soffat surasi, 79-oyat*).